

## Samarqand viloyatining chakana va ulgurji savdo tovar aylanmasi

2026-yil yanvar-iyun dastlabki ma'lumot

- I. CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI
- II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI
- III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI
- IV. METAMA'LUMOTLAR
- V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

### I.CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI


2026-yil 1-iyul holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 10 795 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 60 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 10 735 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi 22 332,5 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 119,5 % ni tashkil etdi.


Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi 2 308,3 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,8 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 20 024,2 mlrd so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 121,1 %), shundan, uyushmagan savdo tovar aylanmasi 2 640,7 mlrd so'mni (o'sish sur'ati 134,4 %) tashkil etdi.

### Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati (% da)

2026-yil yanvar-iyun



### Chakana savdo aylanmasi asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (2024-2026 yillar yanvar-iyun, ulushi foizda)




## II. ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

2026-yil 1-iyul holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni 3 379 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 49 ta, kichik korxona va mikrofirmalar soni 3 330 tani tashkil qildi.

Viloyat bo'yicha 2026-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi 16 255,0 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 14,7 % ga o'sdi.

Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 8 101,6 mlrd so'mni tashkil qilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,4 % ni, viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulushi 49,8 % ni tashkil etdi.


### Ulgurji savdo hajmi dinamikasi (mlrd so'm)



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar Paxtachi (58,6 marta), Urgut (5,3 marta), Qo'shrabot

(197,9 %), Pastdarg'om (168,6 %), Samarqand (107,1 %) tumanlari va Samarqand shahrida (124,6 %) kuzatildi.

**Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**




**III. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO HAJMI**

2026-yil 1-iyul holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni 2 993 tani tashkil etib, shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 21 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2 972 tani tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyun oyida umum ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi 14 498,3 mlrd so'mga yetib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga oshdi. Bunda savdo aylanmasining 64,5 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo hajmi o'sish sur'atlari (foizda)**





#### IV. METAMA'LUMOTLAR

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, O'zbekiston Respublikasining me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro ko'rsatmalar va tavsiyalar "Milliy hisoblar tizimi –2008", "Chakana va ulgurji savdo statistikasi bo'yicha xalqaro tavsiyalar" (BMT, 2008), Chakana tovar aylanmasining statistik kuzatuv va uning miqdoriy ko'rsatkichini hisoblash bo'yicha uslubiy tavsiyalar hisobga olingan (MDH qo'mitasi, 2011) holda ishlatiladi.

Ulgurji va chakana savdo tovar aylanmasi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda norasmiy va yashirin iqtisodiyotni statistik baholash bo'yicha o'tkazilgan kuzatuvlar natijalarini qo'shgan holda hisoblangan.

#### V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLA

[Ichki savdo aylanmasi](#)

|                                                                                  |                                                                       |                                                                                                            |                                                                  |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
| <b>Chop etishga mas'ul:</b><br>Xizmatlar va savdo sohasi<br>statistikasi bo'limi | <b>Bo'lim boshlig'i:</b><br>N.Abdiraimov<br>Tel: +998712308000 (3040) | <b>Ijrochi:</b><br>Tel: +99866 235 14 42<br>e-pochta: <a href="mailto:info@samstat.uz">info@samstat.uz</a> | <b>Manzil:</b> 140100, Samarqand<br>sh., U.Tursunov ko'chasi, 82 |
|----------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|